



## THE LIFE AND CREATIVE LEGACY OF MAHMUDKHOJA BEHBUDIY IN THE CONTEXT OF FOREIGN SCHOLARSHIP

Azamjon Oltmishevich Dadakhonov

*Senior Teacher*

*Department of Information Services and Public Relations*

*Faculty of International Journalism*

*Uzbekistan State World Languages University*

*Tashkent, Uzbekistan*

[mr.dadakhonov@gmail.com](mailto:mr.dadakhonov@gmail.com)

<https://orcid.org/0000-0002-9681-2024>

<https://doi.org/10.36078/1767726150>

**Abstract.** This article analyzes the study of the creative legacy of Mahmudkhoja Behbudiy, one of the leading figures of the Jadid movement in early twentieth-century Turkestan, within the international academic and literary context. As an enlightener, publicist, playwright, and journalist, Behbudiy played a significant role in the process of national awakening, and his ideas continue to maintain their relevance on a global scale. The article examines scholarly research on Behbudiy's works conducted in countries such as Turkey, Russia, France, Germany, the United States, Azerbaijan, and Tajikistan, summarizing their methodological approaches and key academic conclusions. Particular attention is paid to how foreign researchers interpret Behbudiy's Jadid ideology, journalistic activity, dramaturgy, and views on Western civilization and modernism. The article also highlights the role of translations, archival sources, and comparative studies in introducing Behbudiy's heritage into international academic circulation. Methodological approaches such as historical-analytical, content-analysis, and comparative-analytical methods used in the research process ensured the scientific validity of the article and allowed for an objective and in-depth coverage of the place of Mahmudkhodja Behbudiy's life and work in a foreign scientific context. The findings of the study contribute to evaluating Behbudiy's legacy within a global context, interpreting it in harmony with world enlightenment thought, and revealing the international significance of the Jadid movement. This article is one of the first studies aimed at analyzing the life and creative legacy of Mahmudkhoja Behbudiy in the international academic arena. In addition, where appropriate, it also cites viewpoints that reflect the shared perspectives of Uzbek researchers and foreign scholars.

**Keywords:** Mahmudkhoja Behbudi; Jadid movement; foreign studies; enlightenment; journalism; national awakening; international academic discourse.

## MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING HAYOTI VA IJODIY MEROSI XORIJIY TADQIQOTLAR KONTEKSTIDA

A‘zamjon Oltmishevich Dadaxonov

*Katta o‘qituvchi*

*Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasi*

*Xalqaro jurnalistika fakulteti*

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Toshkent, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Maqolada XX asr boshlarida Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodining xorijiy ilmiy-adabiy muhitda o‘rganilishi tahlil qilinadi. Behbudiy ma‘rifatparvar, publitsist, dramaturg va jurnalist sifatida milliy uyg‘onish jarayonida muhim rol o‘ynagan bo‘lib, uning g‘oyalari bugungi kunda ham xalqaro miqyosda dolzarbligini saqlab kelmoqda. Maqolada Behbudiy hayoti va ijodiy faoliyati bo‘yicha bir qator xorijiy davlatlar, xususan, Turkiya, Rossiya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Ozarbayjon va Tojikiston kabi mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar, ularning metodologik yondashuvlari va ilmiy xulosalari umumlashtiriladi. Xususan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan Behbudiyning jadidchilik mafkurasi, matbuot faoliyati, dramaturgiyasi hamda G‘arb sivilizatsiyasi va modernizm haqidagi qarashlari qanday talqin qilinayotgani yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada Behbudiy ijodining xalqaro ilmiy muomalaga kirib borishida tarjimalar, arxiv manbalari va qiyosiy tadqiqotlarning o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqot jarayonida qo‘llangan tarixiy-tahliliy, kontent-tahlil, qiyosiy-tahliliy metod singari metodologik yondashuvlar maqolaning ilmiy asoslanganligini ta‘minlab, Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodining xorijiy ilmiy kontekstda tutgan o‘rnini xolis va chuqur yoritish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari Behbudiy merosini global miqyosda baholash, uni jahon ma‘rifiy tafakkuri bilan uyg‘un holda talqin etish imkonini beradi hamda jadidchilik harakatining xalqaro ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur maqola Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodini xalqaro maydonda tahlil qilinishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan dastlabki tadqiqotlardan biridir. Shuningdek, o‘zbek tadqiqotchilarining xorijlik olimlarning fikrlari bilan mushtarak qarashlaridan ham iqtiboslar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Mahmudxo‘ja Behbudiy; jadidchilik harakati; xorijiy tadqiqotlar; ma‘rifatparvarlik; publitsistika; milliy uyg‘onish; xalqaro ilmiy muhit.

### Kirish

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub burilish yasagan jadidchilik harakati yetakchilaridan biri — Mahmudxo‘ja Behbudiy nafaqat milliy uyg‘onish tariximizda, balki xalqaro ilmiy-adabiy muhitda ham tobora chuqur o‘rganilayotgan shaxsdir. U ma‘rifatparvar, publitsist, dramaturg, jurnalist, siyosiy fikr egasi sifatida o‘z davrining eng

ilg'or g'oyalarini ilgari surdi [Saidov 2024; Qosimov 1999; 2017]. Bugun Behbudiy ijodi faqat O'zbekiston doirasidagina emas, balki Turkiya, Rossiya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Ozarbayjon, Tojikiston va boshqa davlatlar sharqshunoslik, tarix, jurnalistika va madaniyatshunoslik ilmiy maktablarida ham tadqiq etilmoqda [Qosimov 2017].

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg'onish, ma'rifatchilik va modern tafakkurning shakllanishida muhim tarixiy hodisa sifatida namoyon bo'ldi. Ushbu harakatning yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat milliy matbuot va adabiyot taraqqiyotida, balki xalqaro tafakkur, Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi munosabatlarni anglash jarayonida ham muhim o'rin tutadi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy taraqqiyot va xalqaro tajriba o'rtasidagi uyg'unlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etar ekan, Behbudiyning bu boradagi qarashlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish alohida muhimdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida xalqaro masalalar, G'arb taraqqiyoti, zamonaviy ta'lim tizimi, ilm-fan yutuqlari va siyosiy jarayonlarga bo'lgan munosabat bugungi jurnalistika, ta'lim va madaniy muloqot jarayonlari bilan bevosita bog'liq. Behbudiy G'arb tajribasini ko'r-ko'rona taqlid qilishni emas, balki uni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari surgan mutafakkir sifatida hozirgi davrda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Adib o'z asarlarida, ayniqsa, publitsistik chiqishlarida Sharq va G'arbdagi jamiyat hayotining barcha jabhalarini tiyrak nigoh bilan kuzatgan holda chuqur tahlil qiladi. Natijada uning ijodi shu davrga qadar nafaqat o'zbek olimlari, balki xorijlik mutaxassislar tomonidan ham alohida qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. Shu bois, Behbudiyning hayoti va ijodiy merosini xalqaro kontekstda tadqiq qilinishini ham qayta baholash zamonaviy ilmiy ehtiyojlardan biridir.

### **Adabiyotlar sharhi**

Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodining xorijda o'rganilishi masalasi Markaziy Osiyo jadidchilik harakati va musulmon modernizmi doirasida shakllangan ilmiy tadqiqotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Olim Z. Abdurashidov [2022: 6] yozadi: "Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining homiysidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20–yillarda mahalliy matbuotda Sadridin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so'ng jadidlar faoliyatini o'rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi".

Olima N. Namozova “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2015-yil, 3-sonida chop etilgan “Dunyodan xabardor ma’rifatparvar” nomli maqolasida o‘rinli qayd etganidek, Behbudiy ijodi mustaqillik yillarida faol va xolis o‘rganib kelinmoqda: *“Mustaqillik yillarida o‘z zamonining ijtimoiy-siyosiy muhitiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan peshqadam arbob, yangi usul maktabi targ‘ibotchisi, o‘zbek drama san’atini boshlab bergan birinchi dramaturg, jurnalist, noshir va muharrir Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati xolis o‘rganildi. S. Qosimov, A. Aliyev, N. Karimov, S. Ahmedov, Sh. Turdiyev, B. Do‘stqorayev, N. Rahmat, H. Saidov, Z. Ahrorova singari adabiyotshunos olimlar, ijodkorlar tomonidan o‘nlab ilmiy maqolalar yozildi, tadqiqotlar amalga oshirildi, risolalar chop ettirildi. Atoqli olim Begali Qosimov nashrga tayyorlagan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Tanlangan asarlar”i dunyo yuzini ko‘rdi”*.

Ta’kidlash kerakki, milliy behbudiyshunoslikda professor B. Qosimov, professor H. Saidov, olim Z. Abdurashidov va boshqalarning tadqiqotlari yetakchi o‘rinni egallab, ular xorijiy ilmiy qarashlar bilan uyg‘un holda Behbudiy shaxsini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Zamonaviy ommaviy va ilmiy nashrlarda (M. Darmonova va boshqalar) Behbudiy merosining milliy va xalqaro miqyosdagi ahamiyati yangicha talqin qilinmoqda. Xususan, bu borada olim Halim Saidovning izlanishlari alohida tahsinga loyiq. Olim eski arxivlar, kutubxonalarda tinimsiz ishlab, Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarini asil eski o‘zbek yozuvidan kirill va lotin yozuvlariga tabdil qildi, bugungi avlod vakillari adib ijodining original namunalaridan foydalanishlariga keng yo‘l ochish bilan birga, Behbudiy ijodini turli ilmiy usullar va turli yondashuvlar asosida tadqiq qilib kelmoqda. Xususan, olimning “Buyuk publitsist, muharrir, noshir” [Saidov 2024] nomli monografiyasi Behbudiy hayoti, ijodiy faoliyati haqida dalillarga boy bo‘lsa, “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2026-yil 17-yanvar sonida chop etilgan “Sun’iy aql: jadid qalbidan chiqqan ilk hayqiriq” maqolasi Behbudiy ijodini talqin qilishning mutlaqo yangicha yondashuvda ekanligi bilan e’tiborni tortadi. Xorijiy behbudiyshunoslikda esa adib shaxsi ko‘proq jadidchilik harakatining mafkuraviy yetakchisi, ma’rifatparvar jurnalist va madaniy islohotchi sifatida talqin qilinadi. Atoqli olim Begali Qosimov qayd etganidek, “O‘zbekistonda (H. Sayid, N. Avazov, Z. Ahrorova), Tojikistonda (R. Xodizoda), Germaniyada (I. Baldauf; B. Qosimov bilan hamkorlikda), AQShda (E. Olvort) va boshqa mamlakatlarda Behbudiy hayoti va ijodi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriladi” [Qosimov 2017].

G‘arb tadqiqotchilari orasida Adib Xolid (Adeeb Khalid)ning “The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia” asari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining muhim ideologlaridan biri sifatida baholanadi. Muallif Behbudiy faoliyatini

musulmon jamiyatida madaniy va siyosiy islohotlar bilan bog‘liq jarayonlar kontekstida tahlil qiladi. Shuningdek, A. Bennigsen va Ch. Lemerrier-Quellejay [1964] tadqiqotlarida Rossiya imperiyasi hududidagi musulmon matbuoti va milliy harakatlar doirasida Behbudiy nomi ilg‘or publitsistlar qatorida tilga olinadi.

Fransuz sharqshunosligi an‘analarida H. Carrère d’Encausse asarlarida Buxoro va Turkiston hududidagi islohotchilik harakatlari fonida Behbudiy faoliyati tilga olinib, uning diniy va dunyoviy islohotlarga munosabati yoritilgan. Y. Bregelning “Encyclopaedia Iranica”dagi maqolasi esa Behbudiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ixcham, ammo muhim ensiklopedik tavsifni beradi.

Turk va ozarbayjon tadqiqotchilari orasida Behbudiy ijodi dramaturgiya, til masalasi va ta‘lim islohotlari nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. M. Hasanli Behbudiyning o‘zbek dramaturgiyasining asoschilaridan biri sifatida baholasa, T. Hocaog‘lu va T. Ulus uning jadidchilikdagi o‘rni, til va ta‘limga oid qarashlarini umumturkiy kontekstda tahlil qiladi. I. Baldaufning Behbudiyning Falastindagi faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqoti esa adibning xalqaro aloqalari va sayohatlari xorijiy manbalar asosida yoritilgan kam sonli maxsus ishlardan biridir.

Umuman olganda, xorijiy adabiyotlarda Mahmudxo‘ja Behbudiy asosan jadidchilik harakati, musulmon modernizmi, matbuot va ta‘lim islohotlari doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning hayoti va ijodining kompleks, tizimli va qiyosiy tahlili hali ham dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

### **Material va metodologiya**

Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va ijodining xorijiy ilmiy doiralarda o‘rganilishi masalasi tahlil qilinib, tadqiqot jarayonida birlamchi va ikkilamchi manbalar majmuasidan foydalanildi. Xususan, Yevropa va Rossiya sharqshunosligi doirasida yaratilgan ilmiy monografiyalar, maqolalar, konferensiya materiallari, ensiklopedik nashrlar hamda zamonaviy xorijiy tadqiqotchilarning ishlari asosiy tadqiqot materiallari sifatida jalb etildi. Shuningdek, Behbudiy hayoti va ijodiga oid milliy ilmiy manbalar qiyosiy tahlil uchun foydalanildi.

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy metod yordamida Behbudiy shaxsiyati va ijodining xorijiy tadqiqotlarda qanday ijtimoiy-siyosiy va madaniy kontekstda talqin etilgani aniqlandi. Ushbu metod orqali Behbudiyning jadidchilik harakati vakili sifatidagi faoliyati, uning ma‘rifiy va publitsistik qarashlarining Rossiya imperiyasi davri, musulmon modernizmi va global modernizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq holda xorijiy olimlar tomonidan baholanishi tahlil qilindi.

Kontent-tahlil metodi xorijiy ilmiy adabiyotlarda Behbudiyga oid tasvir va baholash mezonlarini aniqlashda qo‘llanildi. Jumladan, Behbudiy nomi bilan bog‘liq ravishda “jadidchilik”, “ma‘rifiy islohot”, “milliy uyg‘onish”, “musulmon modernizmi”, “transmadaniy muloqot” kabi tushunchalarning qo‘llanilishi, semantik yuklamasi va kontekstual talqini tizimli ravishda o‘rganildi. Natijalar tahlil xorijiy tadqiqotlarda Behbudiy shaxsiyati ko‘pincha faqat mintaqaviy emas, balki kengroq sivilizatsion jarayonlar doirasida ham baholanganini ko‘rsatdi.

Qiyosiy-tahliliy metod orqali xorijiy olimlarning Behbudiyga bergan baholari milliy tadqiqotlarda mavjud yondashuvlar bilan solishtirildi va ular o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlar aniqlandi. Germenevtik yondashuv yordamida xorijiy ilmiy matnlarda muallif pozitsiyasi, mafkuraviy yo‘nalish va yashirin baholash mezonlari talqin qilindi. Tadqiqotda tizimli yondashuv qo‘llanilib, Behbudiy hayoti va ijodining xorijda o‘rganilishi sharqshunoslik, postkolonial tadqiqotlar va musulmon modernizmi doirasidagi ilmiy konsepsiyalar bilan uzviy bog‘liq holda kompleks tahlil etildi.

Quyidagi jadvalda ushbu tadqiqot jarayonida qo‘lga kiritilgan tadqiqot materiallari va metodlari ixcham holda izohlangan:

### 1-jadval

*Behbudiy ijodini tadqiq qilishda xorijiy va milliy yondashuvlar qiyosi bo‘yicha materiallar va metodlar tahlili*

<b>Taqqoslash mezonlari</b>	<b>Xorijiy yondashuvlar</b>	<b>Milliy yondashuvlar</b>
<b>Asosiy e‘tibor</b>	Behbudiyning jadidchilik va musulmon modernizmi kontekstida, keng sivilizatsion jarayonlar bilan bog‘lab tahlil qilish	Behbudiyning milliy uyg‘onish, ma‘rifat va milliy taraqqiyot kontekstida ko‘proq o‘rganish
<b>Tadqiqotning maqsadi</b>	Turkiston va Markaziy Osiyoda modernizatsiya jarayonini global nuqtayi nazardan yoritish	Behbudiyning O‘zbekiston tarixi, madaniyati va jurnalistik merosini mustaqil ravishda qayta baholash
<b>Metodologiya</b>	Tarixiy-tahliliy, postkolonial yondashuv, sivilizatsion tahlil, komparativ tadqiqot	Tarixiy-tahliliy, publitsistika tahlili, ma‘rifiy-ma‘naviy kontekst, manbalarni tanqidiy o‘rganish
<b>Behbudiyga berilgan baho</b>	Keng sivilizatsion rol (transmilliy muloqot, global modernizatsiya, Islom dunyosidagi yangilanish)	Milliy meros va milliy uyg‘onish poydevori sifatida yuqori baholash
<b>Kelib chiqish manbalari</b>	Xorijiy arxivlar, chet tilidagi ilmiy nashrlar, sharqshunoslik	Milliy arxivlar, o‘zbek tilidagi monografiya va maqolalar,

	tadqiqotlari	mahalliy tarixiy manbalar
<b>Tahlilning cheklovlari</b>	Kontekstni global miqyosda yoritish orqali mahalliy tafsilotlar yetarlicha ochilmasligi mumkin	Milliy kontekstga urg'u berilib, Behbudiyning global ta'siri va sivilizatsion bog'liqligi kamroq ko'rilishi mumkin
<b>Ilmiy yangilik</b>	Behbudiy merosini transmilliy va global jihatdan qayta baholash	Behbudiy merosini milliy va madaniy jihatdan yangicha talqin qilish

Mazkur metodologik yondashuvlar maqolaning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodining xorijiy ilmiy kontekstda tutgan o'rnini xolis va chuqur yoritish imkonini berdi.

### Tadqiqot natijalari va muhokama

Xorijiy tadqiqotchilar Behbudiy shaxsini, avvalo, jadidchilik harakati kontekstida baholaydilar. Jadidchilik — musulmon jamiyatlarini zamonaviy ilm-fan, ta'lim, matbuot va siyosiy tafakkur bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan islohotchilik harakati sifatida dunyo ilmiy adabiyotlarida e'tirof etilgan. Behbudiy esa bu harakatning nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida alohida o'rin tutadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va ijodini o'rgangan xorijlik nutaxassislar haqida gap ketganda, avvalo, Germaniyadagi Humbolt universiteti professori Ingebord Baldauf nomini alohida e'tirof etish zarur. Ushbu olim Behbudiy haj safariga oid kundaliklarini nemis tiliga tarjima qilgan va "Mahmudxo'ja Behbudiy Falastinda" nomli maqola yozgan. Bu ishda jadid allomaning Falastin sayohati va ijodiy tafakkuri tahlil etilgan. Baldauf maqolasida Mahmudxo'ja Behbudiyning "O'rta Osiyodagi barcha jadidlarni birlashtirgan yirik namoyanda" deya ta'riflaydi, Qrimdagi Ismoil G'aspirali, Qozon tatarlarining Qayum Nosiriysi, Usmonli turklarining Ahmad Midhatiga qiyoslaydi hamda adibga nisbatan "O'rta Osiyoning xalq muallimi edi" degan ifodani qo'llaydi [Baldauf 1999: 259–260]. Behbudiyning jurnalist sifatidagi sermahsul ijodkor ekaniga alohida to'xtalgan nemis olimasi jumladan, shunday yozadi: "Millat qayg'usi Mahmudxo'jani ko'plab dasturiy maqolalar yozishga undadi, bu maqolalar achinish, o'kinch hislariga yo'g'rilgan bo'lsa-da, ulardagi "musulmonlarni hozirgi ruhiy va moddiy tushkunlikdan faqat ma'rifat bilan fan, bilim qutqara oladi", degan fikr yarq etib ko'zga tashlanib turadi" [Baldauf 1999: 260].

Olima Ingeborg Baldauf "Samarqandni dunyo bilan bog'lash: Mahmudxo'ja Behbudiyning 1910-yillardagi jurnalistik faoliyati" ("Connect Samarkand to the world: Mahmud Khoja Behbudi's journalistic

endeavors in the 1910s”) sarlavhali yana bir chiqishida ta’kidlashicha, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyna” jurnalini tashkil etish orqali Turkiston jamiyatini dunyo bilan bog‘lashni, siyosat, ijtimoiy hayot, din, fan va san’atga oid bilimlarni keng yoyishni maqsad qilgan. U turli xorijiy (tatar, fors, afg‘on, misr va turk) nashrlaridan foydalanib, zamonaviy global jarayonlarni Samarqand o‘quvchisiga yetkazgan va ularni ibrat olishga undagan. Olima Behbudiyning bu faoliyatini ehtiyotkor va konservativ muhitda axborot berish chegaralarini kengaytirgan noyob jurnalistik yondashuv sifatida baholaydi [Baldauf 2022]. Yevropalik tadqiqotchilar Behbudiy faoliyatini mustamlakachilik sharoitida shakllangan intellektual isyonning ramzi sifatida talqin etadilar. Fransiya va Germaniyada chop etilgan ilmiy maqolalar va tezislarda Behbudiyning Rossiya imperiyasi siyosatiga munosabati, milliy o‘zlik va madaniy mustaqillik haqidagi qarashlari tahlil qilingan [Bennigsen va Lemercier 1964, Carrère d’Encausse 1966, Baldauf 2022]. Amerikalik tarixchi Adib Xolid (Adeeb Khalid, 1999) “The Politics of Muslim Cultural Reform” (“Musulmon madaniy islohoti siyosati”) nomli asarida Behbudiyni Turkiston jadidchiligini global musulmon modernizmi bilan bog‘lagan markaziy figura sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, Behbudiy g‘oyalari Qrim, Usmonli Turkiyasi, Misr va Hindiston musulmon ziyolilari qarashlari bilan mushtaraklik kasb etadi: *“Behbudiyning tajribasi faqat XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan jadidchilik harakatining eng ko‘zga ko‘ringan namoyandasi bo‘lganligi bilan ajralib turardi. U o‘z davrining juda obro‘li shaxsi bo‘lib, bir avlod oldingi vatandoshlari uchun imkonsiz bo‘lgan tarzda hayotni boshdan kechirgan va ilgari mavjud bo‘lmagan aloqa va tashkiliy shakllardan foydalangan. Behbudiyning faoliyati Markaziy Osiyodagi musulmon madaniy islohotlarining barcha ko‘rinadigan paradokslarini o‘zida mujassam etgan”* [Adeeb Khalid 1999: 81].

Behbudiy ijodini o‘rganishda Rossiya sharqshunoslik maktabining hissasi salmoqlidir. Sobiq sho‘rolar davrida jadidlar faoliyati mafkuraviy sabablar bilan cheklangan bo‘lsa-da, 1990-yillardan boshlab Behbudiy merosiga nisbatan ilmiy yondashuv tubdan o‘zgardi. Behbudiyning siyosiy publitsistikasi — parlament tizimi, konstitutsion boshqaruv, bank-moliya tizimi, shaharsozlik va Yevropa tajribasiga oid qarashlari xorijiy ilmiy jamoatchilik e’tiborini tortgan.

Moskvada tug‘ilib, muayyan vaqt Farg‘onada yashagan va keyinchalik AQShga ko‘chib ketgan olim Yuriy Bregel Indiana universitetining Ichki Osiyo va Ural milliy resurs markazi direktori (1989–1997) lavozimida ishlay boshlagan davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi haqida maqola e’lon qiladi. Unda olim Behbudiyning jurnalistika, dramaturgiya, maorif, siyosat va matbaachilik sohalarida amalga oshirgan ishlariga

batafsil to‘xtaladi. Jumladan, adibning “Turkiston viloyatining gazetasi”da boshlangan jurnalistik ijodi 1906-yildan faollashgani, “Xurshid”, “Tujjor”, “Haqiqat” (keyinchalik “Shuhrat”), “Samarqand”, “Oyina”, “Najot”, “Hurriyat” nashrlaridagi faoliyatini birma-bir izohlaydi. Xususan, “Xurshid” (1906–yilning sentyabr, noyabr oylari) gazetasidagi faoliyati haqida gap ketganda, quyidagilarni yozadi: *“Ushbu gazetaning 6-sonida (11-oktyabr) Behbudiy Markaziy Osiyo uchun jadid islohotlari dasturini o‘z ichiga olgan maqola chop etdi. Xuddi shu maqolada Behbudiy Rossiyaning o‘ng va chap qanot partiyalarini tanqid qildi va Turkistonning tub aholisini “konstitutsiyaviy demokratlar” (yoki “kadetlar”) partiyasini qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi; Behbudiy 1917-yilgi inqilobgacha siyosiy jihatdan mo‘tadil bo‘lib qoldi”*.

Maqolada, shuningdek, muallif “Behbudiy jurnalistik faoliyatidan tashqari, Turkistonning eng nufuzli jadidlaridan biri sifatida siyosat bilan ham shug‘ullangan”, der ekan, allomaning siyosiy faoliyatini ham atroflicha tahlil qiladi [Bregel 1989: 99–100].

Turkiyada Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodi jadidchilikning turkiy dunyo miqyosidagi umumiy merosi sifatida tahlil qilinadi. Turkiyalik tadqiqotchilardan biri Aziz Merhan [Merhan 2007: 132] Behbudiyning “Padarkush” dramasi turkiy dramaturgiyaning ilk modern namunalaridan biri sifatida baholagan [Ulus 2025: 89–105]. Shuningdek, Turkiyada Behbudiyning ta‘lim islohoti haqidagi qarashlari yangi usul maktablari, darsliklar, geografiya va tarixni o‘qitish metodikasi alohida tadqiqot obyektiga aylangan.

Behbudiy va Markaziy Osiyodagi jadidchilikni tadqiq etgan turk olimlaridan biri Temur Ko‘jao‘g‘li (Timur Kocaoğlu) Ismoil Gaspirinskiy arxividan topilgan 1907–yil noyabr oyida Behbudiy tomonidan qo‘lda yozilgan taklif xati haqida yozadi: *“Men Turkiston uchun madaniy muxtoriyat va o‘zini o‘zi boshqarishni talab qiluvchi bu taklif Rossiyada muhokama qilinganmi yoki yo‘qmi, tekshirmadim, ammo bu matn diqqat bilan o‘rganilganda, Behbudiyning taklifi o‘z davri uchun, Chor Rossiyasi tarkibida qolgan Turkiston hududlarida yashovchi Turkiston xalqi uchun, Buxoro amirligi va Xiva xonligi uchun juda jasoratli bo‘lganligi aniq bo‘ladi.*

*Uning barcha huquqlarni o‘z ichiga olgan avtonomiyani xohlayotgani oson tushuniladi. Ushbu taklifdagi eng muhim masalalardan biri maktablarni xususiy lashtirishdir. Ikkinchisi — Rossiya hukumatining Turkiston ichki ishlariga aralashmasligi haqidagi moddalar. Behbudiy, ayniqsa, Turkiston xalqiga suv va yer masalalari bo‘yicha oxirgi bo‘limda ko‘proq vakolatlar berilishini talab qiladi. Turkiston xalqi o‘zlari xohlamasa, Turkistonda joylashtirilishi mumkin emas. Bu yerda tilga olingan qochqinlar, albatta,*

*hukumat tomonidan tashkil etilgan qochqinlar va ular rus qochqinlari*” [Hocaoğlu 2018: 441–442].

Yana bir turk olimi Taner Ulus (2025) esa o‘z tadqiqotida Behbudiyning til va til ta’limi haqidagi qarashlarini adib zamondoshlarining qarashlari bilan muqoyasa qilgan holda tadqiq etadi. Ushbu mavzuning ahamiyatini “Behbudiyning tilga oid ishlarini Ismoil Gaspirali va Volga-Ural mintaqasidagi jadidlar g‘oyalari bilan bir qatorda o‘rganish turkiy dunyoning umumiy lingvistik holatini tushunishda foydali bo‘ladi”, shaklida baholagan tadqiqotchi “Behbudiyning faoliyati turk tili va o‘zbek tilining rivojlanishini kuzatish uchun muhimdir”, — deb yozadi.

So‘nggi yigirma yil ichida G‘arb akademik muhitida Markaziy Osiyo jadidchiligi bo‘yicha izlanishlar keskin faollashdi. Bu jarayonda Mahmudxo‘ja Behbudi markaziy shaxs sifatida o‘rganilmoqda.

AQShlik olimlar tomonidan Behbudiyning matbaachilik sohasidagi sermahsul faoliyati, siyosiy nutqlari va dramaturgiyasi jamoatchilik fikrini shakllantirishning dastlabki namunalaridan biri sifatida baholanadi. Jumladan, Chapel Hilldagi Shimoliy Karolina universitetining sotsiologiya sohasi bo‘yicha professori, Charlz Kurzman Nyu-Yorkda 2002–yilda chop etilgan “Modernist Islam, 1840–1940” kitobida Mahmudxo‘ja Behbudi, Munavvar Qori, Fitrat va Cho‘lponlar ijodini tadqiq etgan [Kurzman 2002: 257].

Xorijiy tadqiqotchilar uchun Behbudi ijodining eng qiziqarli jihatlaridan biri — uning jurnalistik faoliyatidir. U Turkistonda zamonaviy jurnalistika maktabiga asos solgan shaxslardan biri sifatida e’tirof etiladi. Behbudi ijodiga alohida ixlos bilan qaragan va jadid allomaning hayoti va ijodiy faoliyatini juda chuqur tadqiq etgan, publitsistik va badiiy asarlarini puxta o‘rganib tahlil qilgan AQShlik olim — Kolumbiya universitetining turksho‘ro tadqiqotlari bo‘yicha professori Eduard A. Ollvort (Edward A. Allworth)dir. [1990] kitobida Mahmudxo‘ja Behbudiyni “Samarqandning yetakchi islohotchisi” (“leading Samarkand Reformist”) “jadidlarning sermahsul yetakchisi” (“the prolific Jadid leader”) — deya ta’rif-u tavsif qiladi [Ollvort 1990: 136].

Behbudi maqolalarida axborotning dolzarbligi, tahliliy yondashuv, muammo qo‘yish va yechim taklif etish kabi professional jurnalistika tamoyillari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu sababli G‘arb ommaviy kommunikatsiya nazariyotchilari uni mintaqaviy media modernizatsiyasining muhim namoyandasi sifatida baholaydilar.

Ozarbayjonlik Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti olimi Mehman Hasanli ham bu borada quyidagilarni qayd etadi: “*Mahmudxo‘ja Behbudi XX asr boshlarida Turkistondagi ma’rifatparvarlik harakatining*

*ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri edi. XIX–XX asrlar o'zbek adabiyotining milliy uyg'onish davrini o'rganayotgan ko'plab tadqiqotchilar uni Turkiston jadidchiligi-ma'rifatparvarligi asoschilaridan biri deb hisoblashadi... M. Behbudiy o'zbek matbuoti rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ziyolilardan biridir*" [Mehman 2015].

So'nggi yillarda Behbudiy ijodiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar, seminarlar va ilmiy to'plamlar ko'paymoqda. Uning tanlangan maqolalari ingliz, turk va rus tillariga tarjima qilinib, xorijiy o'quvchilarga yetkazilmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Media nazariyasi va amaliyoti kafedrasida bir necha yildan beri o'tkazib kelinayotgan Behbudiy tavalludiga bag'ishlab xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar ham jadid alloma ijodini xorijlik olimlar tomonidan o'rganilishida ham yanada muhim omil bo'lmoqda. Unda o'zbek olimlari qatori xorijiy mutaxassislar va olimlar ham faol ishtirok etib, Behbudiyning ta'lim, ayollar masalasi, milliy taraqqiyot va siyosiy islohotlar haqidagi qarashlari bugungi globallashuv sharoitida ham dolzarbligini yo'qotmaganini xorijiy olimlar alohida ta'kidlashadi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" drama va haj safari kundaliklari Germaniyada Ingebord Baldauf tomonidan nemis tiliga o'girilgan. Mazkur drama, shuningdek, AQShda "Patricide" nomi bilan ingliz tiliga tarjima va talqin qilingan. Professor Eduard Ollvort nafaqat olim, "shuningdek, tarjimon ham bo'lgan. U yetakchi jadid Mahmud Xo'ja Behbudiy tomonidan yozilgan "Patricide" asarini ingliz tiliga tarjima qilgan birinchi odam edi" [The Oxus Society 2020].

Shu o'rinda xorijiy veb-sahifalardan birida e'lon qilingan yana bir qiziq ma'lumotni keltiramiz: Yaqinda butun faoliyati davomida Markaziy Osiyo bo'yicha ishlagan mashhur professor Edvard Allvortga (1920–2016) bag'ishlangan veb-saytni ishga tushirgan asli Markaziy Osiyoda ildiz otgan Nyu-Yorklik bankir Orhan Babaqurbon (Orhan Babakurban)ning ta'kidlashicha, Allvort Kolumbiya universitetida Turko-Sovet tadqiqotlari bo'yicha faxriy professor bo'lib, faoliyatining katta qismida shu dargohda dars bergan.

O. Babaqurbon bir intervyuda o'zbek matbuoti vakillari Behbudiyning "Padarkush" pyesasini chop etishmoqchi bo'lishgani, lekin asar nusxasini topa olmay, E. Ollvortga murojaat qilishganini shunday xotirlaydi: "1996–yilda o'zbek gazetasida "Behbudiyni oqlagan "josus" sarlavhali maqolada "Sharq yulduzi"da "Padarkush"ni nashr etishni xohlashgani aytiladi. Ammo bu dahshatli bo'lsa-da, asar nusxasini topa olmadilar. Shuning uchun ular professor Ollworth bilan bog'lanib, uning nusxasini so'rashdi.

Maqoladagi “josus” soʻzi Ollvorthning juda koʻp narsani bilishi va josus boʻlishi mumkinligi haqidagi mishmishlarga ishora qiladi, ammo Ollvorthning Behbudiy pyesasini obyektiv talqin qilishi bu mishmishlarga chek qoʻydi. Ollvort oʻzbek adabiyotiga ishtiyoqmand boʻlib, uning jahon adabiyoti bilan bir qatorda ekanligini taʼkidladi” [The Oxus Society 2020].

Oʻzbek olimlaridan Zaynobidin Abdurashidov “Mahmudxoʻja Behbudiy” nomli risolasida “Amerikalik olim Eduard Ollvortning fikricha, oʻsha davrda yaratilgan boshqa dramalar Behbudiyning “Padarkush”i kabi muvaffaqiyatli chiqmagan”, degan fikrini alohida qayd etadi [Abdurashidov 2022: 60]. Shuningdek, mazkur risolada yozilishicha, rossiyalik mutaxassislardan Boris Pyaskovskiy 1922-yildagi “Inqilob” jurnalida bosilgan “Oʻzbek teatri tarixi” maqolasida “Oʻzbek teatrining asosini qoʻyib beruvchi samarqandlik Mahmudxoʻja Behbudiydir”, deya qayd etib oʻtgan.

Jadid allomasi Mahmudxoʻja Behbudiy faoliyati haqida xorijlik olimlarning fikrlari va tavsiflarini yana koʻplab keltirib tahlil qilish mumkin. Biroq bu borada shuni ham alohida qayd etish kerakki, olim Mashhuraxon Darmonova oʻzining “Besh yuzdan ortiq maqola yozgan — birinchi oʻzbek publitsisti Behbudiy” maqolasida oʻrinli taʼkidlaganidek, “olib borilgan tadqiqotlarga qaraganda, u oʻzbek va fors-tojik tillarida besh yuzdan ziyod maqola yozgan. Ammo Behbudiy ijodining boshqa qirralari kabi uning publitsistikasi ham toʻliq oʻrganilmagan, davriy matbuotda chop etilgan maqolalari yaxlit toʻplangan emas” [Darmonova 2025]. Shundan kelib chiqilsa, adib ijodini oʻrganish va yosh avlodga yetkazish boʻyicha ham milliy, ham xalqaro maydonda qilinadigan ishlar talaygina.

### Xulosa

Umuman olganda, Mahmudxoʻja Behbudiy ijodining xorijda oʻrganilishi — faqat tarixiy shax faoliyatiga qiziqish emas, balki Markaziy Osiyodagi intellektual uygʻonish jarayonlarini global kontekstda anglashga boʻlgan ehtiyoj natijasidir. Behbudiy bugun jahon ilm-fanida milliy oʻzlikni saqlagan holda modernizatsiya yoʻlini izlagan mutafakkir, jasoratli publitsist va zamonaviy tafakkur targʻibotchisi sifatida baholanmoqda.

Uning merosi Oʻzbekistonning maʼnaviy boyligi boʻlish bilan birga, umumjahon madaniy merosining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu maʼnoda, Behbudiy ijodini xorijiy ilmiy maydonda oʻrganish jarayoni milliy tariximizni dunyoga tanitishning muhim omillaridan biri boʻlib qolmoqda.

Mazkur tadqiqot Mahmudxoʻja Behbudiy hayoti va ijodining xorijda oʻrganilishi masalasini ilmiy-nazariy va tarixiy manbalar asosida tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Behbudiy

shaxsiyati va ijodi nafaqat o'zbek jadidchilik harakati doirasida, balki Markaziy Osiyo musulmon modernizmi va xalqaro islohotchilik jarayonlari kontekstida ham muhim ilmiy obyekt sifatida e'tirof etilgan. Xorijiy tadqiqotchilar asarlarida Behbudiy jadidchilikning yetakchi ideologlaridan biri, milliy uyg'onish va ma'rifiy islohotlar tashabbuskori sifatida baholanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xorijiy adabiyotlarda Behbudiy faoliyati asosan jadidchilik harakati, musulmon jamiyatlarida modernizatsiya jarayonlari, matbuot va ta'lim islohoti bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilingan. Adeeb Khalid, Bennigsen, Carrère d'Encausse, Baldauf kabi olimlarning tadqiqotlari Behbudiyning xalqaro dunyoqarashi, siyosiy pozitsiyasi va publitsistik faoliyatini mintaqaviy va global jarayonlar bilan bog'liq holda yoritishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, ayrim xorijiy tadqiqotlarda Behbudiy merosining ichki g'oyaviy tizimi, publitsistik uslubi va milliy-ma'rifiy konsepsiyasi yetarli darajada chuqur tahlil qilinmaganligi aniqlandi.

Kontent-tahlil natijalari Behbudiy publitsistikasida xalqaro mavzu tasodifiy emas, balki konseptual xarakterga ega ekanini ko'rsatdi. Uning Sharq va G'arb munosabatlariga, ta'lim va ilm-fan taraqqiyotiga, turkiy birlik va milliy uyg'onishga oid qarashlari izchil g'oyaviy tizim asosida shakllangan. Behbudiy G'arb tajribasini tanqidiy o'zlashtirish, ko'r-ko'rona taqliddan voz kechish va milliy qadriyatlar bilan uyg'un rivojlanish g'oyasini ilgari surgan mutafakkir sifatida namoyon bo'ladi. Ayni shu xususiyatlar sabab ham xorijlik olimlar tomonidan adib ijodiga alohida qiziqish bildirilmoqda. Chunki xorijlik, ayniqsa, yevropalik olimlar ko'proq tarixiy manbalarda o'zlari haqida boshqa millat va elat vakillaridan bo'lgan siyosat va ilm arboblari qanday fikr-mulohazalar bildirgani, qanday tadqiqot olib borganini o'rganishga alohida ahamiyat qaratadilar. Adib Mahmudxo'ja Behbudiy global tafakkuri shu darajada kengki, unda XX asr boshlarida Sharq-u G'arbdagi ko'plab davlat va millatlarning ravnaq etishi-yu tanazzuliga doir qiziqarli ma'lumotlar va fikrlar talaygina.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Mahmudxo'ja Behbudiy merosini xorijiy ilmiy muomalada kengroq targ'ib etish maqsadida uning asosiy publitsistik va dramatik asarlarini ingliz, rus va boshqa xorijiy tillarga ilmiy izohlar bilan tarjima qilish zarur;
2. Behbudiy ijodini jadidchilik doirasidan tashqarida, global modernizm va musulmon islohotchilik harakatlari bilan qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq;

3. Behbudiy publitsistik merosini zamonaviy jurnalistika, media savodxonlik va ta'lim islohoti kontekstida qayta talqin qilish orqali uning g'oyalarini bugungi globallashuv sharoitida amaliy ahamiyatga ega ilmiy manbaga aylantirish lozim.

Umuman olganda, Mahmudxo'ja Behbudiy merosi nafaqat tarixiy-ma'rifiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ijtimoiy, madaniy va axborot jarayonlarini anglashda muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot Behbudiy ijodini xalqaro ilmiy diskurs doirasida baholash va yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirishga oz bo'lsa-da hissa qo'shadi, deb umid qilib qolamiz.

### **Minnatdorchilik**

Menga Mahmudxo'ja Behbudiyning xalqaro mavzudagi ijodi va xalqaro maydonda erishgan nufuzi haqida gapirgan va o'z monografiyasini taqdim etib, shu mo'jaz tadqiqotni amalga oshirishimga motivatsiya va turtki bo'lgan filologiya fanlari doktori, professor Halim Saidov, Behbudiyning "Haj xotiralari"ga oid safarnomalarni talqin etib, Behbudiy ijodiga qiziqish uyg'otgan filologiya fanlari nomzodi, dotsent Akbar Nurmatov hamda milliy merosimizni xalqaro maydonda o'rganilishi va uni xorijda yanada ommalashtirish sohasiga hissa qo'shishim kerakligiga ilhomlantirgan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Sadoqat Maxsumovaga alohida minnatdorchiligimni bildiram.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy: risola. — T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. —156 b.

Baldauf I. Mahmudxo'ja Behbudiy Falastinda. *Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.* // To'plovchi, so'zboshi va izohlar: Begali Qosimov. *2-nashri*, tuzatilgan va to'ldirilgan. — T.: Ma'naviyat, 1999, — 280 b.

Darmonova M. Besh yuzdan ortiq maqola yozgan — birinchi o'zbek publisisti Behbudiy. // "Oyina.uz" portali. — URL: <https://oyina.uz/uz/article/3380>. 09.01.2025.

Qosimov B. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. // To'plovchi, so'zboshi va izohlar: Begali Qosimov. — *2-nashri*, tuzatilgan va to'ldirilgan. — T.: Ma'naviyat, 1999, — 280 b.

Qosimov B. Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyati. — [18.01.2017](https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/mahmudxoja) URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/mahmudxoja>

[behbudiy-tanlangan-asarlar-nilufar-namozova-dunyodan-xabardor-marifatparvar.html](http://behbudiy-tanlangan-asarlar-nilufar-namozova-dunyodan-xabardor-marifatparvar.html)

Saidov H. Buyuk publitsist, muharrir, noshir. — T.: Ta'lim-media. 2024. — 200 b.

Allworth E.A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. — Stanford, California, Stanford University, Hoover Institution Press. 1990. — 410 p.

Baldauf I. Connect Samarkand to the world: Mahmud Khoja Behbudi's journalistic endeavors in the 1910s. // Ringvorlesung Turkologie. The Press in the 19th and 20th centuries: From Central Asia to Anatolia via Crimea and the Caucasus. 12.10.2022 25.01.2023. — URL: [https://orientalistik.univie.ac.at/fileadmin/user\\_upload/i\\_orientalistik/Ringvorlesung\\_Turkologie/Baldauf\\_Abstract\\_und\\_Bio.pdf](https://orientalistik.univie.ac.at/fileadmin/user_upload/i_orientalistik/Ringvorlesung_Turkologie/Baldauf_Abstract_und_Bio.pdf)

Bennigsen A., Lemerrier-Quelquejey Ch. (1964) *La presse et le mouvement national chez les musulmans de Russie avant 1920*, — Paris : Mouton, 1964. — 386 p.

[Bregel, Y.](https://www.iranicaonline.org/articles/behbudi-molla-mahmud-kaja) Behbūdī. Vol. IV, Fasc. 1, Published: December 15, 1989. Last Updated: February 14, 2017. — pp. 99–100. — URL: <https://www.iranicaonline.org/articles/behbudi-molla-mahmud-kaja>.

Carrère d'Encausse H. Réforme et révolution chez les musulmans de l'Empire Russe: Bukhara 1867-1924, — Paris, 1966, — pp. 165, 187-88, 206-07.

Hasanli, M. (2015). Mahmudxoca Behbudi və Özbək dramaturgiyasının yaranması. "Türk xalqları ədəbiyyatının aktual problemləri" mövzusunda respublika elmi konfransı. Azerbaijan. — Baku, Baku State university. — S. 217–220. — URL: [https://www.researchgate.net/publication/372941521\\_Mahmudxoca\\_Behbudi\\_v\\_Ozbn\\_dramaturgiyasinin\\_yaranmasi](https://www.researchgate.net/publication/372941521_Mahmudxoca_Behbudi_v_Ozbn_dramaturgiyasinin_yaranmasi)

Hocaoğlu T. Türkistan'da Yenilik Hareketleri ve İhtilaller: 1900-1924. Hazırlayan Timur Hocaoğlu. İkinci Baskı. — Haarlem, Hollanda, UZNED (Uzbekistan Netherlands Friendship Foundation). 2018. — 256 s.

Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. 1st Edition. — [University of California Press](http://www.berkeleyca.press.edu/), 1999. — 400 p.

Kurzman Ch. Modernist Islam, 1840–1940. A Sourcebook. — New York, 2002. — P. 257.

Merhan A. Yazili özbek edebiyati. C.Ü. // Sosyal Bilimler Dergisi, Aralık 2007 Cilt: 31 No: 2 — S. 125–138.

[The Oxus Society](https://oxussociety.org/paying-tribute-to-the-last-of-the-great-masters-of-central-asian-studies-edward-allworth/). Paying Tribute to the “Last of the Great Masters of Central Asian Studies”, Edward Allworth. December 22, 2020. — URL: <https://oxussociety.org/paying-tribute-to-the-last-of-the-great-masters-of-central-asian-studies-edward-allworth/>

Ulus, T. Türkistanlı Ceditçilerden Mahmud Hoca Behbudî'nin Dil Meselesi ve Dil Eğitimi Üzerine Görüşleri. 2025, 9, — S. 89–105, — URL: <https://doi.org/10.58640/asyar.1724453>.

### References

Abdurashidov, Z. (2022). Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy: Risola. (Jadids. Mahmudkhodja Behbudiy: Treatise). Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.

Baldauf, I. (1999). Mahmudxo‘ja Behbudiy Falastinda. (Mahmudkhodja Behbudiy in Palestine). In B. Qosimov (Ed.), Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. (Mahmudkhodja Behbudiy. Selected Works). Toshkent: Ma’naviyat.

Darmonova, M. (2025). Besh yuzdan ortiq maqola yozgan – birinchi o‘zbek publitsisti Behbudiy. (The first Uzbek publicist Behbudiy who wrote more than five hundred articles). Oyina.uz. Retrieved from: <https://oyina.uz/uz/article/3380>

Qosimov, B. (1999). Mahmudxo‘ja Behbudiy. (Mahmudkhodja Behbudiy). In B. Qosimov (Ed.), Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. (Mahmudkhodja Behbudiy. Selected Works). Toshkent: Ma’naviyat.

Qosimov, B. (2017). Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyati. (The life and activity of Mahmudkhodja Behbudiy). Retrieved from: <https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/mahmudxoja-behbudiy-tanlangan-asarlar-nilufar-namozova-dunyodan-xabardor-marifatparvar.html>

Saidov, H. (2024). Buyuk publitsist, muharrir, noshir. (Great publicist, editor, publisher). Toshkent: Ta’lim-media.

Allworth, E. A. (1990). The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. Stanford: Stanford University, Hoover Institution Press.

Khalid, A. (1999). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press.

Kurzman, Ch. (2002). Modernist Islam, 1840–1940: A Sourcebook. New York.